

ISHLAB CHIQUARISH FAOLIYATIDA XARAJATLARNI BOSHQARISH VA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-ASOSIY YO‘NALISHLARI

Nomozov N. J.

MBH-2 guruh magistranti, Toshkent Davlat Transport Universiteti
Toshkent, O‘zbekiston.

Djumanova A. B.

Ilmiy rahbar, Toshkent Davlat Transport Universiteti, Professori.
Toshkent, O‘zbekiston.

Annotatsiya: shbu maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyati doirasida ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish, ularni tahlil qilish va maqbullashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tannarxni shakllantirish va uni pasaytirish choralari raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishda muhim omil sifatida e’tirof etilgan. Maqolada shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida xarajatlarni tuzilmasi va ularning moliyaviy barqarorlikka ta’siri tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Tan narx, ishlab chiqarish samaradorligi, xarajatlarni tuzilmasi, iqtisodiy samaradorlik, resurslardan foydalanish, raqamli iqtisodiyot, moliyaviy barqarorlik.

THEORETICAL AND BASIC DIRECTIONS OF COST MANAGEMENT AND INCREASING ECONOMIC EFFICIENCY IN PRODUCTION ACTIVITIES

Nomozov N. J.

MBH-2 group master's student, Tashkent State Transport University

Tashkent, Uzbekistan.

Djumanova A. B.

Scientific supervisor, Tashkent State Transport University, Professor.

Tashkent, Uzbekistan.

Annotation: This article examines the issues of managing production costs within the economic activities of business entities, as well as analyzing and optimizing these costs to improve production efficiency. The formation of production cost and the measures aimed at its reduction are recognized as key factors in ensuring product competitiveness. The article also analyzes the cost structure in the context of the digital economy and its impact on the financial stability of enterprises.

Keywords: Price, production efficiency, cost structure, economic efficiency, resource use, digital economy, financial stability.

Kirish. Mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy faoliyatining murakkabligi, ko'p omilliligi va o'zaro bog'liqlikda kechishi ularning barqaror rivojlanishini ta'minlashda resurslar va xarajatlarni oqilona boshqarishni talab qiladi. Ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan har xil xarajat turlari korxonaning umumiy daromadiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri chuqur o'rganilishi lozim. Mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra ko'p omilli va murakkab xarakterga ega bo'lib, uning barqaror ishlashi bir qator resurslar va xarajat turlarining oqilona boshqaruviga bevosita bog'liqdir. Xususan, ishlab chiqarish jarayoni samaradorligini belgilovchi asosiy omillar qatorida xom ashyo va materiallar, yoqilg'i-energiya resurslari, ishlab chiqarish vositalari, mehnat resurslari, ularning ish haqi, soliq va boshqa majburiy

to'lovlar, amortizatsiya ajratmalari hamda boshqa operatsion va doimiy xarajatlar muhim o'rin egallaydi. Mazkur resurslar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va ularning korxona daromadiga ko'rsatadigan ta'siri ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirishda va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Shuningdek, xarajatlar tuzilmasini chuqur tahlil qilish, ularni maqbullashtirish yo'llarini aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash mumkin. Shu boisdan ham, ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy asoslarini chuqur o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, bu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar korxona iqtisodiy strategiyasini shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish jarayoni samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar orasida xom ashyo va materiallar, yoqilg'i-energiya manbalari, ishlab chiqarish fondlari, mehnat resurslari, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, amortizatsiya ajratmalari, shuningdek operatsion va doimiy xarajatlar muhim o'rin tutadi. Bu xarajatlarning o'zaro uyg'unlashuvi ishlab chiqarish natijalari va daromad ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu xarajatlarning umumiy miqdorini hisobga olish va tahlil qilish uchun ular pul ifodasida yagona ko'rsatkichga – tannarxga keltiriladi. Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida mahsulot tannarxi korxonaning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Tannarxni aniqlash ishlab chiqaruvchi korxona uchun bir qator muhim iqtisodiy va boshqaruviy afzalliklarni taqdim etadi. Avvalo, bu jarayon ishlab chiqarish rejasining bajarilishi hamda uning o'zgarish dinamikasini tizimli tahlil qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, mahsulot nomenklaturasi bo'yicha rentabellik darajasini aniqlash, tannarxni pasaytirish bo'yicha ichki rezervlarni aniqlash hamda ulgurji narx siyosatini shakllantirishda zarur asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish tannarxining aniq hisoblab chiqilishi iqtisodiy samaradorlikni baholash, yangi texnologiyalar, zamonaviy uskunalar,

tashkiliy va texnik yangiliklarni joriy etish bo'yicha ratsional qarorlar qabul qilishga zamin yaratadi. Ayniqsa, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish masalalarida asosli iqtisodiy hisob-kitoblarga tayanilgan holda investitsion va ishlab chiqarish qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot (ish yoki xizmat) bo'yicha ketgan umumiy xarajatlar yig'indisi pul ifodasida tannarx ko'rinishida ifodalanadi. Raqamli iqtisodiyotda tannarx asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, u orqali mahsulotning bozordagi raqobatbardoshligi, korxona foydadorligi va moliyaviy barqarorligi aniqlanadi.

Rejalashtirilgan va haqiqiy xarajatlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini beruvchi ichki zaxiralarni aniqlash mumkin. Bunda, statistik tahlil vositalari bilan bir qatorda, boshqaruv hisoboti va operatsion moliyaviy tahlil usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tannarxni boshqarish – bu faqat uni hisoblash emas, balki uni pasaytirishga qaratilgan strategik qarorlar qabul qilishni ham o'z ichiga oladi. Xarajatlarni puxta tahlil qilish, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash va ortiqcha sarflarni bartaraf etish orqali mahsulot rentabelligini oshirish mumkin. Ayniqsa, energiya tejankor texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash tizimlari va raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Bugungi raqamli iqtisodiyot muhitida xarajatlarni samarali boshqarish va optimallashtirish nafaqat zarur, balki korxonaning barqarorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Xarajatlarni puxta nazorat qila oladigan tashkilotlar innovatsiyalarni joriy etish, marketing strategiyalarini kuchaytirish va biznesni kengaytirishga yo'naltirilgan investitsiyalarni amalga oshirish uchun kengroq imkoniyatlarga ega bo'ladi. Natijada, mahsulotlar sifati yaxshilanadi, bozor ulushi oshadi hamda kompaniyaning obro'yi kuchayadi.

Xarajatlarni kamaytirish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

- * Korxona daromadlarining oshishi;
- * Bozordagi raqobatbardoshlikning kuchayishi;
- * Innovatsion loyihalarga ko‘proq sarmoya ajratish imkoniyati;
- * Mahsulot sifati va mijozlar ehtiyojini yanada to‘liq qondirish imkoniyati;
- * Xodimlar uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratish va motivatsiyani oshirish.

Resurslarni tejash va xarajatlarni kamaytirish nafaqat moliyaviy jihatdan foyda keltiradi, balki raqobatbardosh bozor sharoitida omon qolish uchun muhim strategiya hisoblanadi.

Masalan, energiya tejaydigan texnologiyalardan foydalanadigan kompaniyalar energiya xarajatlarini 20% dan 30% gacha kamaytiradi. Chiqindilarni qayta ishlash tizimlarining joriy etilishi yirik ishlab chiqaruvchilarga chiqindilarni yo‘q qilish xarajatlarini 15-20 foizga kamaytirishga imkon beradi.

Shuningdek xodimlarni ish vaqti va jarayonini to‘g‘ri tashkil etish ham juda muhim. Chunki agar xodimning ish haqi vaqtbay shaklida bo‘lsa unda ishlab chiqarishni ko‘payishi yoki kamayishi uning uchun unchalik kata ahamiyat kasb etmaydi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilish va ularni oqilona boshqarish bugungi kunda korxonaning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Resurslardan samarali foydalanish, ichki imkoniyatlarni safarbar etish va raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali xarajatlarni maqbullashtirish nafaqat foyda olishni ta‘minlaydi, balki uzoq muddatli iqtisodiy strategiyani ishlab chiqishda ham asos bo‘lib xizmat qiladi. Xarajatlar foydaning asosiy cheklovchisi bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi va samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli korxona rahbariyati har qanday qaror qabul qilishdan oldin mavjud xarajatlarni va ularning istiqboldagi qiymatini chuqur tahlil qilishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. №404. 2016-yil 13-aprel.
2. TYTI moliyasi Metodik qo‘llanma. N.E Babaxalov , A.B DJumanova, N.U Babaxanova. 2018y.
3. “O‘zbekiston moliyasi tizimining mustaqil 25 yil davomidagi taraqqiyoti yo‘li”. A.B Djumanova 2016 y.
4. Ijtimoiy tarmoqlar:
 - a. <http://www.gov.uz>
 - b. <http://www.norma.uz>
 - c. <http://www.lex.uz>